

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIM XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY  
MARKAZI**

**MAKTABGACHA, BOSHLANG'ICH VA MAXSUS  
TA'LIM KAFEDRASI**

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MAISHIY-  
XO'JALIK MEHNATI**

*(Maktabgacha ta'lism tashkiloti tarbiyachilari  
uchun uslubiy ko'rsatma)*

**Samardand – 2020**

Z.Qarshieva - Samarqand VXTXQTUMOHM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi assistenti «Maktabgacha yoshdagi bolalarning maishiy-xo‘jalik mehnati» (*Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilar uchun ko‘rsatma*) Samarqand VXTXQTUMOHM, 2020-yil, 24 bet.

**Muharrir:**

J.Eshquvvatov - SamDU huzuridagi XTXQTMOHM Ilg‘or tajriba va xalqaro hamkorlik ilmiy-axborot tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i

**Taqrizchilar:**

O.To‘xtaev - Samarqand VXTXQTUMOHM maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi assistenti

F.Qudratova – Samarqand shahar 18-MTT rahbari

Ushbu uslubiy ko‘rsatmada maktabgacha ta’lim tashkilotida bola shaxsini shakllantirishda maishiy-xo‘jalik mehnatining ahamiyati, maishiy-xo‘jalik mehnatining mazmuni va unga rahbarlik qilish metodlari, maktabgacha ta’lim tashkilotida maishiy-xo‘jalik mehnatining guruhlarda mazmuni berilgan bo‘lib, undan maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilar o‘z mashg‘ulotlarini tashkil etishlari mumkin.

*Uslubiy ko‘rsatma hududiy markaz Ilmiy-uslubiy kengashining 2020 yil 27-iyuldagи 6/3-5- sonli yig‘ilish qarori bilan nashr etishga ruxsat berilgan.*

## KIRISH

Mehnat inson hayoti uchun, uning farovon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo'lib keladi. Mehnat-faqat shaxsiy moddiy farovonlik manbayigina emas, balki el-yurtga xizmat qilish, vatanimiz gullab-yashnashi va uning qudratini oshirish manbayi hamdir.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug'lab kelishgan. Ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan ilmiy-badiiy kitoblar, me'morchilik obidalari, san'at asarlarining barchasi mehnatning mahsulidir.

Olim bolalarni eng kichik yoshdan mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida fikr yuritib, shu bilan birga inson har tomonlama kamolga etishi uchun ilmlli bo'lishi ham kerak degan o'oyani ilgari suradi.

Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir Alisher Navoiy mehnatsevarlikni chinakam insonning eng asosiy xususiyati deb bilgan. Mehnat kishini bezashini, uni har tomonlama kamol toptirishini yuksak ko'tarinki ruh bilan ifoda etgan. Yosh avlodni sidqidildan mehnat qilishga, mehnatni qadrlashga chaqirgan.

Yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda xalqimiz tomonidan yaratilgan mehnatni ulug'lovchi maqollarining o'rni beqiyos. O'zbek xalq maqollarida mehnat tufayli inson o'z baxtini topishi mumkinligi, mehnat saodatga erishish kaliti ekanligi g'oyasi birinchi o'rinda turadi:

Mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirishning asosiy omilidir. Shuning uchun har bir bola mакtabgacha ta'lim yoshidan boshlab mehnat jarayonida ishtirok etishi kerak. Bolalar bog'chasida, oilada bajariladigan, murakkab bo'lмаган har bir topshiriq bolaning kundalik vazifasiga aylanishi lozim.

## **Bola shaxsini shakllantirishda maishiy-xo'jalik mehnatining ahamiyati**

Bolalarning' maishiy-xo'jalik mehnatida to'g'ri qatnashishlari ancha erta, taxminan ikki yoshga kirganlarida boshlanadi. yosh bolaning hatto cheklangan jismoniy va ma'naviy imkoniyatlari ham navbatchilik vaqtida binoni, maydonni tartibga keltirish, idish-tovoqlarni yig'ish, qo'g'irchoqning narsalarini yuvish va shu kabilar bilan aloqador mehnat topshiriqlarini bajarishda mustaqillik, aktivlikni namoyish etishlariga imkon beradi.

Maishiy-xo'jalik mehnati ma'lum siklga egadir. Bu mehnat jarayonida mehnat operatsiyalari takrorlanibgina qolmay, balki tipik hayotiy vaziyatlar ham yuzaga keladi. Bunda bolalardan mehnat topshiriqlarini bajarishda harakatlarning batartibligi, ish yuzasidan to'g'ri munosabatlarni o'rnata bilish, uyushganlik, hamma uchun ishlash ishtiyoqi talab qilinadi. Bunday ishlarni doimo bajarish, alohida emotsiyonal kayfiyat (maishiy xo'jalik mehnatida qatnashishga hozirlik o'rtog'iga, tarbiyachiga, enagaga, onasiga yordam bergenidan qoniqish) mehnatsevarlik, qat'iyatlilik, tirishqoqlik, atrofdagilarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, mehnat faoliyatining ijtimoiy ahamiyatli sabablari va shu bilan birga maktabgacha yoshdag'i bolaning jamoatchilik asoslari kabi axloqiy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi.

Biroq maishiy-xo'jalik mehnatining ahamiyati faqat ana shundagina emas. U bolalarda mehnat madaniyatining elementar malakalarini individual va jamoa ishni ratsional tashkil etish (masalan, guruh xonasini tartibga keltirishda qatnashish), uni oldindan rejalashtirish, topshiriqni bajarish uchun kerakli materiallarni tanlay bilish, ishni yaxshi va o'z vaqtida bajarishga intilishni ta'limlash imkoniyatlarini yaratadi. Bu o'z navbatida mehnatning mazkur turi uchun ijobiy munosabatlarni ta'limlashga muvofiq keluvchi sharoitlarni yaratadi. Maishiy-xo'jalik mehnati jarayonida bolalarda narsalarga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish, ko'zga ko'rinas tartibsizlikni ham seza bilish va o'z tashabbusi bilan uni bartaraf etishni tarkib toptirish uchun imkoniyatlar yaratiladi.

Mazkur mehnatning bolalar bog'chasida ham, uyda ham zarurligi doimo yuzaga kelib turadi, u bolalarning istalgan faoliyatiga hamrohdir. Masalan, bolalar bir necha kun davomida yirik qurilish materialidan qilintan qurilmani o'ynaydilar. Uning changini artish

ehtiyoji tug'iladi. yoki bola rasm solmoqchi, u qa-lamlarni tanlar ekan, uchi singanlariga duch keladi va ularning uchini ochishga kirishadi. Ishni yakunlagach, bola axlatni yig'ib, belgilangan joyga olib borib tashlashi kerak. Turmushda mehnat qilish zarurati doimo paydo bo'lib turadi: kindir tasodifan o'yinchoqni kir qilgan, tuproq sochgan, suv to'kkani. YUvish, yig'ish-tirish yoki artish kerak. SHunday qilib bolalarda mehnatga hozirlik, mehnatda harakat qilish odatlarini ta'limlash imkoniyatlari yaratiladi.

Maishiy-xo'jalik mehnatining xususiyatlari shundan iboratki, uning natijalari, mehnatning boshqa turlarida bo'lganidek, ba'zan sezilmaydi. U faqat birmuncha vaqtgina bevosita sezilib turadi: bugun changni artsang, ertaga yana paydo bo'ladi; tushlik uchun dasturxon yozildi, tushlik qilindi, hamma narsa yig'ishtirildi. Bolalarga esa qilingan harakatlarni, ishning oxiriga etkazilganini hech narsa eslatib turmaydi. SHu bilan birga ayni bir ishning o'ziri kundan-kunga takrorlayverish bu ishlarga qiziqishni pasaytiradi. Bolalar ko'pincha navbatchilikdan, topshiriqlarni bajarishdan bosh tortadilar yoki unchalik ishtiyoyq bildirmay ishlaydilar.

Bolalarda kundalik bir xil, biroq hayotiy zarur bo'lgan ishga barqaror ijobiy munosabat bo'lishi uchun optimal sharoitni yaratish muhimdir. Butun inventarni joylashtirishni o'ylab chiqish kerak. Uning ochiq polkalarda bo'lishi shart emas, asosiysi unga ma'lum joy ajratilgan bo'lishidir. Aytaylik, agarda shkafda qo'g'irchoqning kiyimini yuvishga mo'ljallangan bir-birining ichiga solib qo'yilgan tog'orachalar, yonida kir yuvishdan oldin stolga solinadigan kleyonka, undan nariroqdasovun idishlariga solingansovun, chelakchalar'yoki yuvilgan kirni solish uchun tog'orachalar. ularni osish uchun chizimcha bo'lsa, bolalarga ishga tayyorlanish oson bo'ladi.

Xuddi mana shu erga bolalar kirni yuvib bo'lgach togorachalarni artishlari uchun kichik sochiqlar, stolning ustini, fartuklar-ni artishlari uchun latta osib qo'yish kerak.

Narsalarning qulay joylashtirilishi bolalarni ishda va uni tashkil etishda ma'lum tartibga rioya qilishga odatlantiradi.

Boshqa inventarlarni: o'yinchoqlarni yuvish uchun kerak bo'ladigan hamma narsani-ho'l o'yinchoqlar solinadigan patnislari, yolalar foydalanadigan mochalka, bolalar o'yinchoqlarni yuvishlari uchun mochalka va artish uchun sochiqlar; shaxsiy gigiena, kiyimbosh va oyoq kiyim predmetlari - ip, tugma, nina, ustki kiyim, oyoq

kiyimi chyotkalari; xonani yig'ishtirish, o'yinchoqlarga qarash uchun kerak bo'ladigan hamma narsalarni joylashtirishni ham puxta o'ylab chiqish kerak.

Bu bilan inventarlardan foydalanishda qulaylik yaratilibgina qolmay, balki narsalarga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishga, batartiblilikka ham o'rgatiladi.

Xo'jalik mehnatining elementar malakalarini shakllantirishda uni tashkil etishni, bolalarga u yoki bu ko'nikmani o'rgatishda foydalilanidigan usullarni o'ylab chiqish kerak. Bolalarga kattalarning maishiy-xo'jalik mehnatining mazmuni. uning ijtimoiy yo'nalganligi haqida tasavvur berishda, mehnat ko'nik-masi va malakalarini shakllantirishda, bolalarda mazkur mehnatga qiziqish va ishtiyooq uyg'otishda tarbiyachilar maktabgacha muassasaning har bir yosh guruhida bolalar mehnat faoliyatini tashkil etishning turli shakllaridan, ta'lim-ta'lim jarayoninnng barcha vositalaridan foydalanadilar.

### **Maishiy-xo'jalik mehnatining mazmuni va unga rahbarlik qilish metodlari**

MTTdagi maishiy-xo'jalik mehnati o'z mazmuniga ko'ra xilmoxildir. Bu MTT binosi ichidagi va uchastkadagi mehnatdir. Bino ichidagi mehnatga o'z navbatida guruh xonasi, yuvinadigan xona, uqlash xonasini tartibga keltirish kiritiladi.

**Mehnatning mazmuni.** Uch yoshga kirgan bolalarda mehnat faoliyatining yuzaga kelishini ta'minlovchi zamin, kattalar (ota-onalar va oilaning boshqa a'zolari, enaga va muassasa qorovullarining) turmushdagi mehnati haqida tasavvur, elementar mehnat topshiriqlarini bajarish, natijali harakatlarni qilish ko'nikmasi: irodaviy fazilatlarning asosi va shu kabilar shakllantiriladi.

Garchi bu yoshdagi bolalarning imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da, ular maishiy-xo'jalik mehnatiga jalb qilinadi: kichkintoylarda kattalarning mehnatiga qiziqish uyg'otiladi, bolalar ularning qurbi etadigan hamkorlikdagi mehnatga jalb qilinadi, ularga bajarishlari mumkin bo'lgan topshiriqlar beriladi.

Bolalar o'zlarini kuzatayotgan kattalarning uydagi, MTMdagisi, ko'chadagi mehnat harakatlarining nomini ayta olishlari kerak: enaga idish-tovoqni yuvadi, oshpaz sho'rva, kompot pishiradi, boshqa ovqatlarni tayyorlaydi; ona ko'ylak tikadi, kir yuvadi va ularni

dazmollaydi; farrosh yo'lkalarini supuradi, qordan tozalaydi.

Bolalarda kattalarning turmushdagi mehnatlari haqida tasavvur hosiya qilish bilan bir qatorda ular yordamchilar sifatida nshga jalb qilinadi: tarbiyachining iltimosiga ko'ra kichkintoylar maydonchaga o'yinchoqlarni olib chiqadilar, stullarni stollar yoniga qo'yadilar, mashg'ulotlar uchun materiallarni olib keladilar va olib borib qo'yadilar, poldagi qog'ozlarni yoki maydondagi barglarni terib oladilar, stollarga non solingan tarelkalarni qo'yadilar. Bularning barchasi bolalarga mehnat malakalarini egallashlarida yordam beradi, ularni keyinchalik bo'ladijan murakkab mehnat faoliyatiga tayyorlaydi.

Tarbiyachi hatto eng oddiy mehnat topshiriqlarini ham boshqa kishilar - tengdoshlar, enaga, ota-onalar, farroshga g'amxo'rlik qilish bilan bog'laydi. SHu orqali tarbiyachi kattalarga yordam berish, ularning topshiriqlarini bajarish, tozalik va tartibga rioya qilish ishtiyoqini: oyoqni yaxshilab artish, iflos qilmaslik, yuvinganda polga suv sachratmaslik, o'yinchoqlarni yoymaslik ka-bilarni ta'limlaydi.

Ish metodi. Maishiy-xo'jalik mehnatiga tarbiyachiik rahbarlik mazkur guruh bolalarining yosh xususiyatlarini hisobga olib amalga oshiriladi.

Tarbiyachi elementar mehnat malakalarini shakllantirar ekan, kichkintoylarning faolligiga, mustaqil faoliyatga intilishlariga, kattalarga taqlid qilishlariga tayanadi. Tarbiyachining vazifasi qat'iy «men o'zim»ni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, shuningdek, bolalarga maqsadga muvofiq harakat qilishni o'rgatishdir. Bu o'rinda eng maqbuli mehnatni tashkil etishning individual shaklidir. Bola tarbiyachi bilan munosabatda bo'lar ekan, avval ma'lum harakatlarni, so'ngra qator operatsiyalarni bajarishni o'rganadi.

Tarbiyachi u yoki bu harakatni qanday bajarish lozimligini ko'rsatish va tushuntirishga alohida e'tibor beradi. «Sen tarelkani bunday, ikkala qo'ling bilan ushla. Qaragin, men qanday ushlayman. To'g'ri, yaxshilab ushla, o'zingga qaratib qiyshaytir-ma, - deydi tarbiyachi. Men ham tarelkani olaman. Kel, endi stolga qo'yamiz. Odina, tarelkani mana bu erga qo'y. Sen ham, bolalar ham sho'rvani non bilan ichadi». Tarbiyachi bola topshiriqlarni yaxshi uddalaganidan quvonadi, qizcha ham quvonadi. U maishiy-xo'jalik mehnatida qatnashishdan ilk dars oldi.

Kichkintoyni mehnatga jalb qilishda, u harakatning maqsadini

ham, ishning natijasini ham ko'rishi muhimdir. Xuddi mana shunga kattalarning ko'rsatishi ham, tushuntirishi ham yordam beradi. U «Tarelkani ikkala qo'ling bilan ushla. O'zingga og'dirma. Tarelkani stolga qo'y, bolalar sho'rvani non bilan ichishadi» deydi. Bular kichkintoyga tushunarli. U faqattarelkani ko'tarib stolga olib kelayotganidangina emas, balki uni stolga qo'yayotganligidan, ya'ni natijaga erishayotganligidan ham qoniqishni his etadi.

Biroq harakatni qanday bajarish lozimligini ko'rsatish va tushuntirishning o'zi kamlik qiladi. Kichkintoylarga bevosita yordam kerak. Tarbiyachi bola bilan birga ayiqchani, mashinani maydonchaga olib chiqishi; kichkintoyning qo'liga qalamdonni berib, qo'lidan tushib ketmasligi uchun uni qanday ushslash kerakligini (uni bolaning qo'li bilan qo'shib mahkam ushlaydi) ko'rsatishi va shkafga qo'yishi mumkin. Bolalar asta-sekin ana shunday malaka-larni egallab boradilar, katta odam esa endi bola faqat qiyin topshiriqni bajarayotgandagina unga yordam berish bilan cheklanishi mumkin. Harakatlarning egallanib borishiga ko'ra ta'limni endi boshqa metod - eslatishdan foydalana boshlaydi: «Komil sen stulchani stol yoniga qo'ymoqchi bo'lganingga doimo uni ozgina ko'tar. SHunday qilsang, shovqin chiqmaydi. Buni qanday qilishingni ko'rsat. Mana bu gal yaxshi. Boshqa stulchani ham mana shunday qo'y».

Osoyishtalikni va ish muhitini yaratish, bolani topshiriqni bajarishida shoshiltirmaslik, bola qila oladigan narsani uning uchun qilib bermaslik juda muhimdir. Va albatta, bolaning nima qilishi, qanday qilishi kerakligiga tegishli talab o'zgarmas bo'lishini yodda tutish kerak. Aytaylik, tarbiyachi kichkintoyning e'tiborini ishning quyidagi izchilligiga jalb qiladi: «Avval qalamlarning hammasini stoldan yig'ib olish, so'ngra ochilgan tomonlarini bir tomonga qilib taxlash va ularni ochilmagan tomonini pastga qilib qalamdonga (bakal, stakanga) solib, uni tokchaga olib borib qo'yish kerak». Agarda katta kishi keyinchalik ham talablarning mazmunini o'zgartirmasa, u holda bola kerakli harakatlarni o'rganib, ularning izchilligini o'zlashtirib oladi. Kichkintoyda ma'lum tarzda harakat qilish odati tarkib topadi.

Maishiy-xo'jalik mehnatida elementar qatnashish uchun zarur harakatlarni shakllaitirishda tarbiyachi o'yin mashg'ulotlar, o'yin mashqlardan foydalanadi. «Komildan o'yinchoqlar qanday qochib ketdi» o'yin-mashqi bunga misol bo'la oladi. O'yinning mazmuni shunday: Komil o'yinchoqlarni o'ynashni yaxshi ko'radi, ammo ularni

yig'ishtirishga erinardi. Bir kuni mashina, koptok, ayiqcha, kubiklar boladan qochib ketishdi. U zerikib ketdi va «Nima uchun o'yinchoqlarni asramadim, joy-joyiga olib qo'ymadim. Agar ular yana qaytib kelishsa, men ularni har vaqt joy-joyiga qo'yardim», deb yig'lab yubordi. O'yinchoqlar Kolyaning gaplarini eshitishdi va qaytib kelishdi. Kolya ayiqcha, kubiklar, koptok, mashinani ko'rib quvonib ketdi va hammasini tartib bilan joy-joyiga qo'ydi.

Bolalar syujetning rivojlanishi jarayonida o'yinchoqlarni tartibga keltirishda Qomilga yordam berishlari mumkin. Kichkintoylardan o'yinchoqlar nima uchun boladan qochib ketganligini, o'yinchoqlar bolalardan qochib ketmasligi uchun nima qilish kerakligini so'rash mumkin. Bularning barchasi bolalarda maishiy-xo'jalik mehnatiga to'g'ri munosabatni va unga qiziqishni tarbiyalaydi, kerakli harakatlarni egallahshi ta'minlaydi.

Bolalarning muvaffaqiyatini qayd etish lozim. Rag'batlantirish bolada shodlik kayfiyatini, harakatni takrorlashga intilishni, istalgan natijaga erishishga intilishni yaratadi.

Bolalarga mavzu bo'yicha badiiy asar o'qib berish, ularda hamma narsani joy-joyiga qo'yish ishtiyoqini uyg'otishi mumkin.

Bolalarda kattalarning maishiy-xo'jalik mehnati haqida tasavvurni shakllantirish uchun tarbiyachi maxsus kuzatuvlarni uyushtiradi, kichkintoylarning diqqatini enaga nima qilayotganligiga (idish-tovoq, oyna, polni toza qilib yuvadi, guruhni, yuvinadigan, kiyinadigan xonani tartibga keltiradi), qo'g'irchoqning kiyimini qanday yuvish, dazmol qilish kerakligiga, o'yinchoqlar xo'jaligida tartibni qanday o'rnatish lozimligiga jalb qiladi. Bolalarni ko'rganlari yuzasidan gapirib berishga tortish muhimdir. Bunda gapni suhbat tarzida olib bormay, bolaga nima xotirasida qolgani va nima **yoqqanini** erkin gapirish imkonini be-rish lozim.

Bunday kuzatishlarni tashkil etar ekan, tarbiyachi kichkintoy-larga kattalar mehnatida elementar qatnashish imkonini beruvchi vaziyatlardan foydalanadi: qoshiqlarni bufetga olib qo'yish, lattani olib berish, suv olib kelish, past tortilgan chizimchaga tarbiyachi tomonidan yuvilgan qo'g'irchoq kiyimini osish.

Bolalar tomonidan elementar mehnat topshiriqlarining bajarilishi, bu ikki-uch yoshlik kichkintoylarning qo'lidan bemalol keladigan ishdir va bu jarayon shunisi bilan qimmatliki, u kichkintoylarni maktabgacha katta yoshda shakllanuvchi mehnat

faoliyatiga tayyorlaydi.

## **Maktabgacha ta'lim tashkilotida maishiy-xo'jalik mehnatining guruhlarda mazmuni**

**Kichik guruh.** Bolalarni maishiy-xo'jalik mehnatiga muntazam jalb qilish kichik guruhdan boshlanadi (bu erda u mehnatning mustaqil turi sifatida yuzaga chiqadi). «Bolajon» dasturida bolalar maishiy-xo'jalik mehnatining turli jarayonlarida egallab olishlari kerak bo'lgan ayrim harakat va operatsiyalarning ro'yxati: ertalabki nonushta, tushlik va kech - tushlik ovqat uchun stol tuzash, mashg'ulot uchun materiallarni tayyorlash, xonani va maydonchani tartibli saqlashlar aniqlab berilgan.

3 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan bolalarda kattalarning MTMdagi va oiladagi maishiy-xo'jalik mehnati haqidagi bilimlarni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish nazarda tutiladi. Bolalarni enaga, oshpaz, uyda esa ota-onalar mehnati bilan tanishtirish davom ettiriladi. Tarbiyachi bolalarning diqqatini yalpi mehnatga, ishda zarur bo'lgan harakatlarga (enaga eshik va devorlarni avval sovunli suv bilan artadi, keyin toza suv bilan yuvadi, undan keyin esa quruq qilib artadi) jalb qiladi. SHu bilan bir qatorda bolalar enaga mehnatining natijasini o'zлari ko'rishlari kerak (enaga eshik va devorlarni yuvadi, ular toza bo'ladi). Maishiy-xo'jalik mehnati bolalarning ehtiyojlarini qondirishga yo'nalganligini kichkintoylarga ochib berish kerak (enaga eshik, devorlarni yuvdi, guruhda hammayoq ozoda va yoqimli bo'ldi).

Tarbiyachi bolalarga kattalar: ota-onalar, MTTda ishlaydigan oshpaz, farrosh, enaga mehnati harakatlarini, kattalarning nima qilayotganini aytib berishni o'rgatadi. Bolalarda maishiy-xo'jalik mehnatiga qiziqish yanada ortadi, unda o'z kuchiga yarasha ishtirok etish ishtiyocoq paydo bo'ladi. Ular kattalar uyda va MTTda bolalarga g'amxo'rlik qilishlarini, kattalarga yordam berish kerakligini bilib oladilar.

Asosiy e'tiborni tarbiyachi bolalarni maishiy-xo'jalik mehnatiga yanada kengroq jalb qilishga qaratadi. Kichkintoylar o'yinchoqlarni, qurilish materiallarini yig'ishtiradilar, stillarni joy-joyiga qo'yadilar, polga tushgan qog'ozlarni va boshqa axlat-larni oladilar, sochiqni joyiga ilib qo'yadilar, ayvon polini supuradilar, maydonchadagi barglarni teradilar. Bino va maydonchani tartibli saqlash ishida

qatnashish ishtiyoqi ana shunday tarbiyalanadi.

Tarbiyachi bolalarni mashg'ulotlarga materiallarni tayyorlash (qalamli qutilarni, mo'yqalam, narsalar yasash uchun taxtalarni tarqatish va yig'ishtirish, mashg'ulot uchun stullar qo'yish)ga ilk yosh guruhdan ko'ra muntazamroq jalg qiladi. Bolalar enagaga stolga dasturxon yozishda: qoshiqlar, salfetkalar, non idishlarini qo'yish, ovqatdan so'ng choy idishlarini xo'jalik stoliga eltib qo'yishda yordam beradilar yil oxirida bu oshxona bo'yicha navbatchilarning ish mazmuniga aylanadi.

Ish metodi. Oldingi guruhsda bo'lganidek bolalarni mehnat harakatlariga o'rgatish, malakalarni takomillashtirish bolalar bilan ishslashning muhim vazifasi hisoblanadi. Tarbiyachi ishning individual shakli - topshiriqdan foydalanib, kerakli natijaga erishish uchun nima qilish va ishni qanday izchillikda bajarish kerakligini ko'rsatadi hamda tushuntiradi. Har bir usulni, harakatni batafsil ko'rsatish, aniq tushuntirish bularning hammasi bиргаликда ish malakasining egallanishini ta'minlaydi. Ko'rsatish, tushuntirish va bolaning maishiy-xo'jalik mehnatini nazarda tutuvchi elementar mehnat topshirig'ini bajarishdagi qatnashish darajasining munosabati mehnat harakatlarining murakkabligiga, ularni har birining egallanishiga, mehnatning maqsadiga bog'liqdir. Tarbiyachining harakatni to'g'ri bo'lishini tekshirib borishi kichkintoyga nima va qanday yordam berilishi kerakligini va qilgani faqat eslatish bilan kifoyalanish lozimligini aniqlashga imkon beradi.

Tarbiyachi bola uchun aniq maqsadni aniqlab turib, uning mehnat faoliyatini shunga yo'llaydi: enagaga toza sochiqlarni ilishda, ayvonning polini supurishda, yo'lkadagi barglarni terishda yordam berish. Agarda qo'yilgan maqsad bolaga yaqin va uning mazmuni tushunarli bo'lsa, u bu ishni bajonudil qabul qiladi va katta kishi yordamida natijaga erishadi.

Bolaning mehnati ko'zga ko'rindigan natija bilan yakunlanishi uchun barcha sharoitni yaratish, bu mehnatning zarurligini anglashga yordam berish muhimdir. Ko'zga ko'rindigan misolga ega bo'lgan tarbiyachi kichkintoyga natijaga erishish uchun uning harakat qilganligini, shuning uchun ham u maqtovga loyiqligini aytadi. Bu o'rinda mehnatning ijtimoiy yo'nalgaligini qayd qiladi va uning guruhdagi barcha bolalar uchun ahamiyatliligini tushuntiradi. Mana shu yo'l bilan katta kishi bolalarda o'zgalar uchun mehnat qilish

ishtiyoyqini uyg'otadi.

Guruh va MTT bog'ida ishlayotgan kattalarning mehnatini kuzatishni tashkil etib tarbiyachi bolalarning diqqatini kattalar bajarayotgan ishga jalg qiladi, ular mehnatining ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Enaga mehnatini kuzatish bo'yicha mashg'ulot jarayonida (bu masalaga 2-3 mashg'ulotni bag'ishlash mumkin) bu mehnat mazmunini ochib berib, tarbiyachi bolalar bilan suhbatni enaganing ishiga qiziqish va hurmat uyg'otadigan qilib olib boradi, diqqatni enaga derazani qanday yuvishiga, guruh xonasini qanday yig'ishtirishiga, idish-tovoqni yuvishga va shu kabilarga jalg qiladi. Kundalik hayotda ham enaga mehnatining ahamiyatini, uning bolalarga g'amxo'rligini bod-bod takrorlash kerak. Mana kichkintoylar sayrdan qaytishdi. Tarbiyachi shodiyona deydi: «Xonamiz yorug'roq bo'lib qolibdimi-a! (Bolalar toza yuvilgan oynalarni sezadilar.) Guruh xonasini biz uchun xush yoqadigan qilib qo'ygan enagamizga rahmat».

Bolalarni oshpaz mehnati bilan tanishtirish uchun har bir mashg'ulotda faqat qandaydir bir mehnat jarayonini, masalan, pirojka pishirishni ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachi bolalarning e'tiborini barcha bolalar uchun etarli miqdorda pirojka tayyorlash uchun qancha un, shakar, tuxum, sut kerak bo'lishiga jalg qiladi, oshpazning berilib ishlayotganligini ta'kidlaydi. Oshpazdan bularning hammasini u kim uchun tayyorlayotganini, oshxonada ishlash qiyin yoki osonligini, o'z ishini yaxshi ko'rish ko'rmasligini gapirib berishni iltimos qilish mumkin. Tushlik vaqtida enaga guruhg'a oshxonadan tayyor pirojkalarini olib kelganda, bolalarda oshpazga nisbatan minnatdorchilik hissiyotini yanada oshirish maqsadida tarbiyachi bolalardan oshxonaga uyush-tirilgan sayohatni eslashni so'raydi.

Kichkintoylar kattalarning turmushdagi mehnatlarining ahamiyatini anglashlari juda muhimdir. SHu boisdan ham tarbiyachi kattalarning mehnatini kuzatishni tashkil etar ekan, bolalarni ular bilan birga ishlashga (imkonibor joylarda) jalg qilishga harakat qiladi. Aytaylik, bolalar kuzda maydonni yig'ishtirishni kuzatishgan. Farroshning yo'lkan'i qanday supurganini va barglarni yig'ib zambilg'altakka qanday solganini hamda xo'jalik hovlisiga olib ketayotganini bolalar ko'rishgandi. Tarbiyachi bu mehnatning atrofdagilar uchun foydalilagini aytib o'tgan. Bolalar ham maydonni yig'ishtirishda qatnashish ishtiyoyqini bildirishadi. Ular kichik savatchalarda barglarni belgilangan joyga tashiydilar. Maydonni

yaxshiroq va tezroq yig'ishtirish uchun har biri o'z savatchasiga ko'proq barg solishga urinadi. «Men ko'p bargni terib olaman, - deydi Odil. - Toxir amakiga ish kam qoladi». Kattalar mehnatini kuzatish va unda qo'lidan kelganicha qatnashish bolalarning xatti-harakatini belgilaydi: ular guruh va maydonda tartibni saqlashga harakat qiladilar, agarda tartibsizlikni sezsalar darhol bartaraf etadilar.

Ekskursiya vaqtida yoki undan so'ng tarbiyachi bolalar bilan ko'rganlari haqida suhbatlashadi. Bolalarning axloqiy rivojlanishida bunday suhbat katta ahamiyatga egadir.

**O'rta guruh.** O'rta guruhda maishiy-xo'jalik mehnatining mazmuni asosan mazkur mexnat jarayonlari miqdorining oshishi hisobiga murakkablashadi. Masalan, bolalar avval boshda tarbiyachi rahbarligida, keyinchalik, ya'ni yilning oxiriga kelib mustaqil tarzda guruh xonasida va maydonda tartibni saqlaydilar, ularni yig'ishtirishda ishtirok etadilar: stullarni, qurilish materiallarini latta bilan artadilar; o'yinchoqlarni va qo'g'irchoqlarning kiyimlarini va hokazolarni yuvadilar. Yil davomida bolalarga toza salfetkalarni tanlash, sochiqlarni ilish, kuzda to'kilgan barglarni to'plash, qishda yo'lkani qordan tozalash topshiriladi. Maishiy-xo'jalik mehnati jarayonining miqdor jihatdan oshishi, bu guruhdagi barcha bolalarni ishga muntazam jalb qilish va ularda har kuni mehnat qilish odatini ta'limlab borish imkonini beradi.

Mazkur yosh guruhsida bolalar maishiy-xo'jalik mehnatining yaxlit jarayonlarini egallaydilar (qo'g'irchoqlarning kiyimlari ni, o'yinchoqlarni yuvadilar, stolga dasturxon yozadilar, mashg'ulotlarga materiallarni tayyorlaydilar). Bu bolalardan konkret usul va operatsiyalarni bilishlikni (bolalar uni oldingi yosh bosqichida egallaganlar) va ulardan kerakli izchillikda foydalana olishlikni talab qiladi.

Bolalarni maishiy-xo'jalik mehnatiga muntazam jalb etish tirishqoqlik ko'rsatib ishlash odatini hamda shaxsning mustaqillik, bir-biriga g'amxo'rlik qilish, kattalarga iltifot ko'rsatish, ular uchun biror yoqimli ish qilish istagi kabi sifatlarni tarbiyalash imkonini beradi. Bolalarda kattalarning mehnatiga, o'z yaqnn kishilarining uydagi ishlari va bolalar bog'chasida xizmat qiluvchi xodimlarining ishlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'limlanadi. Tarbiyachi bolalarning e'tiborini ishlayotganlarning mehnat operatsiyalari sifatiga jalb qiladi: hammayoq toza va shinam bo'lishi uchun enaga pol, eshik, oynani

tozalab yuva-di; oila a'zolarining qornini to'yg'azish uchun ona ovqatni tez tayyorlaydi. Mana shu yo'l bilan tarbiyachi bolalarning diqqatini mehnatning ijtimoiy yo'llanganligiga qaratadi, ularda ishga va ishning natijasiga ijobiy munosabatni, o'zgalar uchun mehnat qilish ishtiyoqini ta'limlaydi.

Ish metodi. Besh yoshli bolalarning maishiy-xo'jalik mehnatiga rahbarlik qilishda ularning shaxsiy qiziqishlari, shaxsiy ehtiyojlarinigina emas, balki bolalar jamoaining, shuningdek, atrofdagi kattalarning ehtiyojlarini ham bolalarga tushuntirish muhimdir. SHuning uchun o'rta guruhda hisobga olinishi zarurligini maishiy-xo'jalik mehnatini tashkil etishda tarbiyachi ish jarayonida shaxsiy tashabbus, shaxsiy sababni qo'llab-quvvatlash bilan birga, uni imkonи boricha o'zgartirishga va unga ijtimoiy ahamiyatli ma'no berishga harakat qiladi. Masalan, tarbiyachi Sobirga qo'lqopini quritish uchun sushilkaga qo'yishni aytadi. Bola xursandchilik bilan buni bajardi. SHunda tar-biyachi boshqa bolalarga ham g'amxo'rlik qilish kerakligini, ularning ham qo'lqoplarini quritish lozimligini sekingina aytadi. Bola «Men hozir o'zimnikini qo'yib olay, keyin boshqalarnikini ham qo'yaman» - deb javob beradi. Sobir o'z qo'lqopini qo'yib bo'lganidan so'ng, quritish uchun ajratib qo'yilgan qo'lqoplarni stoldan olib ularni issiq quvur ustiga yoyib chiqdi.

Bolalarning ijtimoiy xarakterdagи mehnat topshiriqlarini bajarishda qatnashishlari ko'pincha ularning istaklariga bog'liq bo'ladi. Bu tarbiyachini birinchi navbatda bolalarning o'zлari ko'proq istagan mehnat topshiriqlarini bajarishlari (qo'g'irchoqlarning kiyimlarini, o'yinchoqlarni yuvish)ga g'amxo'rlik qilishga undaydi. Faoliyatning maqsadiga (natijasiga) erishgan bolalar, bajarilgan ishdan qoniqishni his etadilar va bu ularni bunday ishlarda keyinchalik ham ishtirok etishga undaydi. Ikkinchi tomondan, bunday bola taqlid uchun namuna bo'ladi. Tengdoshlari ham xuddi shunday ishga qo'shilishga, topshiriqnı muvaffaqiyatli uddalaganliklari, boshqalarga yordam bergenliklari uchun kattalarning ma'qullahiga sazovor bo'lishga harakat qiladilar.

Besh yoshli bolalar uchun bunday mehnatni tashkil etishning eng maqbul shakli navbatchilikdir. Tarbiyachi bolalar o'zlarining birinchi ijtimoiy majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini, ularning o'z tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlari qanday bo'layotganligini diqqat bilan kuzatib turadi. Bolalarning umumiy ishga qo'shilishlari va

uni bajarish jarayonida xilma-xil hayotiy vaziyatlarning yaratilishi tarbiyachiga bolalarni shaxsiy sabablardan kelib chiqqan faoliyatdan (o'zi bajarishi, o'zining aktivlikka, do'stlari bilan muloqatda bo'lishga bo'lgan ehtiyojini qondirishi) asta-sekin o'rtog'iga, katta kishiga yordam beradigan faoliyatga, motivga o'tkazish imkonini beradi. O'rta guruhda maishiy-xo'jalik mehnatini tashkil etishda o'yindan ham foydalanish kerak. Tarbiyachi bolalarni yangi o'yin «Kemaning qurilishi» bilan tanishtirmoqchi ekanligini, biroq buning uchun kubiklar, qurilish materiallari mumkin qadar toza, xuddi yangi material singari chiroyli bo'lishi kerakligini aytadi. «Bu uchun nima qilish kerakligini o'ylab ko'ring», deydi u. Tarbiyachi qurilish materiallarini yuvish ishtiyоqini bildirgan bolalarning tashabbusini ma'qullaydi. Hamjihat bo'lib ishlashadi: birlari yuvishadi, ikkinchilari artishadi, uchininchilari ularni joyiga taxlashadi. Tarbiyachi bolalarning mashg'ulotlarini e'tiborsiz qoldirmaydi. U bolalarga murojaat qilib, «Sizlarda kim boshliq? Kema qurish uchun qo'rilish materiali tayyorlash bo'yicha butun ishga kim javob beradi?» - deb so'raydi. Aziza maqsadni tezroq anglatdi. U o'zini taklif etdi. Bolalar qarshilik ko'rsatishmadi. U buyruq bera boshladi: «Qani, yaxshiroq ishlanglar, Mana, Alisher, seni kubiklaring yomon artilibdi». Alisher bo'lsa: «Juda ayyorsan-da. Aziza, buyruq beraverasan, o'zing bo'lsa hech narsa qilmaysan». deb javob qaytaradi. Tarbiyachi bolani quvvatlaydi. «Alisher haq. O'rtoq boshliq. o'ylab ko'ring: kimdir yordamga muhtojdir», - deydi. Aziza bo'lsa Alisher va Sarvar o'z ishini uddalay olmayotganini ko'rib, kubiklarni ular bilan birga arta boshlaydi. Tez orada ish yakunlandi. Tarbiyachiga qurilish «boshlig'i» bolalarning do'stona, hamjihatlik bilan ishlaganliklarini qayd etishdi. «YAshanglar, bolalar, yaxshi ishladinglar, zo'r mehnat qildinglar, endi kemani qurishga kirishish mumkin». O'yin bilan biriktirilgan mehnat bolalarda ishlash ishtiyоqini ta'limlashga hamda qo'yilgan maqsadga erishishlarida yordam beradi. Birgalikda ishlashda bolalar bir-birlariga yaqinlashadilar, o'yin va ishda dilkash sherikka aylanadilar.

Maishiy-xo'jalik mehnatining ijtimoiy ahamiyatini bolalarning anglab olishlari uchun ular bilan bo'ladigan ta'limiy ishda mazmunan muvofiq keluvchi kitoblar illyustratsiyalari, rasmlar (masalan, «Navbatchilik». «Oilada bayramga tayyorgarlik») mazkur manbalar haqidagi suhbatlardan foydalaniladi.

Kattalarning - ota-onasi va oilaning boshqa a'zolari, MTT

xodimlarining mehnati bilan tanishtirish bu yoshda gi bolalar bilan bo'ladigan ta'limviy ishda ilgarigidek muhim o'rinni egallaydi. O'rta guruhdayoq maishiy mehnatning ijtimoiy xarakterini, uning o'zgalar manfaatiga yo'nalganligini ko'rsatish muhimdir. Tarbiyachining e'tibori bolalar ongida faqat maishiy-xo'jalik mehnati mazmuni haqidagi tasavvurlarni kengaytirishgagina emas, balki kattalarga yaxshi hissiyat ularning mehnati uchun minnatdorchilik hissini ta'limlashga ham yo'nalgan bo'lishi kerak. Kattalarning jamoa mehnatlarini ham kuzatishni tashkil etish muhimdir. Bu o'rinda tarbiyachi MTTda ishlayotganlarga, ularning o'zaro munosabatlariga namuna sifatida tayanadi va taqlid qilish usulida esa-enaga, oshpaz va uning yordamchisidan foydalanadi. Bu kattalar mehnati haqidagi bilimning o'sishiga yordam beradi, bolalarning mehnat aktivligini oshiradi va ularning qalbida yosh avlodning yaxshi yashashi uchun barcha sharoitni yaratayotgan kishilarga nisbatan hurmat hissini uyg'otadi.

**Katta guruh.** Olti yoshli bolalar bilan ishlaganda maishiy-xo'jalik mehnati jarayonlarini yanada kengaytirishga katta e'tibor beriladi: bolalar tushlikda uchinchi taomni tarqatadilar, ovqatdan so'ng enagaga idish-tovoqlarni yig'ishtirishga yordam beradilar; mashg'ulot tugagach material va qo'llanmalarni o'z joyiga olib qo'yadilar, mo'yqalam, stakanlarni yuvadilar, elimlash va rasm solishda ishlatilgan lattani yuvadilar, ishdan so'ng stollarni artadilar; xonani kundalik yig'ishtirishda qatnashadilar (mebelni artadilar, o'yinchoqlarni yuvadilar, polni supuradilar va shu kabilar); o'rinlarini yig'adilar. Bolalar buni tartibli, hafsala bilan qilishlari kerak.

Uy anjomlari, mehnat asboblaridan to'g'ri foydalaiish yuzasidan talablar ortadi: foydalangandan so'ng yuvish va quritish, tartibli va belgilangan joyda saqlash, bunda «Har bir narsaning o'z joyi bor» degan qoidaga rioya qilinadi. Bolalar guruh xonasidagi tartibsizlikni sezishlari va uni bartaraf etishlari kerak.

Bolalar oltinchi yoshda mehnat operatsiyalarining izchilligini egallaydilar. Bu ularga rejorashtirishning sodda usulini va turmush mehnatini tashkil etish malakalarini egallahshlariga yordam beradi.

Olti yoshli bolalarda navbatchilik qilish ko'nikmalari shakllantiriladi: stolga dasturxon yozish, mashg'ulotlar uchun material va qo'llanmalarni qo'yib chiqish va mashg'ulot yakunida yig'ishtirib qo'yish; guruh xonasini har haftalik yig'ishtirishga barcha bolalar jalganligi uchun surʼati beradi.

qilinadi. Ular ayrim doimiy majburiyatlarni bajaradilar (o'zlarining o'rinalarini, o'yinchoqlarni yig'adilar, stolga dasturxon soladilar).

Tarbiyachi bolalardagi kattalarning turmushdagi mehnatiga qiziqish va hurmatni qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda, ularning har biri boshqalar uchun mehnat qilishi kerakligi haqidagi umumlashtirilgan tasavvurlarni shakllantirish masalasini ham hal qiladi.

Ish metodi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning maishiy-xo'jalik mehnati anchagina mazmunli, jamoa mehnat bo'la boradi. Bu undan bolalarni axloqiy ta'limalash vositasi sifatida kengroq foydalanish, ya'ni: maqsadga intiluvchanlikni, uyushqoqliqni. kishilar maishiy mehnatlarining zarurligini va muhimligini aniqlash va unga hurmat bilan qaray olish sifatlarini shakllantirish jamoa faoliyat jarayonida ijodiy o'zaro munosabatlarni ta'limalash imkonini yaratadi.

Katta guruh bolalari bilan ishlaganda ularni kattalarga yordam berishga jalg etish yuqori ahamiyat kasb etadi. Masalan, enaga karavot anjomlarini almashtirishda yostiqni jildga tiqish, choyshabni yozishni bolalarga topshiradi. Bolalar bu topshiriqni bajarar ekanlar, ular o'zlarini kattalarning haqiqiy yordamchilari tarzida his etadilar.

Mehnat jarayonida katta odamning o'zi taqlid namunasi hisoblanadi: faqat ish usullarinigina ko'rsatib qolmay, u kundalik odatiy mehnatga qanday munosabatda bo'lish namunasi ham bo'ladi (tartibli, tez, diqqat bilan ishlaydi). Ish jarayonida u bu ish qanday ahamiyatga ega ekanligini bolalar bilan muhokama qiladi. Bolalar enagaga muntazam yordamlashadilar. Hamkorlikdagi ishni shunday tashkil etish zarurki, bunda bolalar biror topshiriqning passiv ijrochilari bo'lib qolmasinlar, balki enaga siymosida ishning tashkilotchisini ko'rsinlar va uning mehnatsevarligini sezal olsinlar, guruh ta'limalanuvchilariga va o'zlaridan kichik bolalarga ko'rsatilayotgan e'tiborni his etsinlar.

Katta guruh bolalarini maishiy-xo'jalik mehnatiga jalg etishda bir necha bolalarga biror bir ishni bajarish bo'yicha tarbiyachi topshiradigan umumiyl topshiriqlar muhim o'rinni egallaydi. Bunday topshiriqlarning tarkibi xilma-xil va ular butun guruh uchun biror narsa qilish zarurligiga asoslanadi. Masalan, yozda saroyda saqlangan, hozir esa, ya'ni qishda ulardan sayrlarda foydalanish mumkin bo'lgan chang'i, chanalarni artish.

Bolalarda o'zini-o'zi yo'lga sola bilish malakalari etarlicha

shakllanganligi uchun ham tarbiyachi umumiy topshiriqning bajarilishini: ular ishni nimadan boshlaydilar, buning uchun nimalar kerak bo'ladi, o'zini va kiyim-boshini iflos qilmaslik va polga narsa to'kmaslik uchun ishni qanday uyushtirish kerakligini ular bilan muhokama qiladi. Tarbiyachi umumiy ishning qaysi qismini kim bajarishini kelishib olishlarida bolalarga yordam beradi. Agarda ish usullari bolalarga notanish bo'lsa, tarbiyachi ishga o'zi kirishadi, qiyin yoki notanish harakatni qanday bajarish va ishni qanday uyushtirish kerakligini ko'rsatadi, bir-biri bilan kelisha bilishlikka va yordam berishga o'rgatadi. Mana shu yo'l bilan tarbiyachi harakatlarning muvofiqligiga, o'zaro kelishuvga qanday erishish mumkinligini ko'rsatadi.

Tarbiyachi bolalarini maqsadni mustaqil qo'yishga, ishni rejalashtirishga, uni oxiriga etkazishga asta-sekin odatlantiradi. Garchi guruh yoki maydonni tartibga keltirish zarurati har doimo mavjud ekan, demak, bu narsa juda muhimdir.

Katta guruh bolalarining maishiy-xo'jalik mehnatini tashkil etishning asosiy shakli-ularni ijtimoiy ahamiyatli maz-munga ega bo'lgan jamoa mehnat faoliyatiga jalb etishdir. Bolalarga jamoa ish oldidan beriladigan yo'l-yo'riq o'zi va yaqin kishilari (ona, tarbiyachi, enaga) uchun qilinadigan mehnatdan atrofdagilar-bog'chadagi o'zlaridan ancha kichik tarbiyalanuvchilar, boshqa guruh xodimlari uchun qilinadigan maishiy-xo'jalik mehnatiga o'tishga zamin yaratishi lozim. Bu esa bolalarning mehnat ta'limida keyingi, ya'ni, maktabga tayyorlov guruhsida asosiy vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

**Maktabga tayyorlov guruhi.** Maktabga tayyorlov guruhsida bolalar maishiy-xo'jalik mehnatini mehnatning yaxlit turi sifatida o'zlashtiradilar. Maishiy xo'jalik ishlarining hajmi yanada orta boshlaydi. Stolga dasturxon yozish jarayoniga stolni gullar bilan bezash, ikkinchi va uchinchi taomlarni tarqatish qo'shiladi. Etti yoshga kirgan bolalar stillarni, deraza tokchalarini arta ola dilar, o'yinchoqlar va materiallar joylangan shkafda tartib o'rnata oladilar.

Mustaqillikka va bajarilayotgan harakatlar sifatiga talab ortadi: tez, chaqqon, tartibli, engil harakat qilib ishlash, predmetlarni ustalik bilan ishlatish talab qilinadi. Bolalar o'z ishi va umumiy ishlarni rejalashtirish, o'zaro kelisha bilish, ishning izchilligini o'rganish, majburiyatlarni taqsimlash, asboblarni tanlash va ulardan ratsional foydalanish malakalariga o'rgatiladi. SHuningdek, mehnatda

bolalarning ijobiylarini o'zara munosabatlarini ta'limalash, mustaqillik, mehnatsevarlik, aktivlik va shu kabi boshqa sifatlarini shakllantirish bo'yicha dastur vazifalari amalga oshiriladi. SHunday qilib, mакtabga tayyorlov guruhida maishiy-xo'jalik mehnati jarayonida faqat mehnat faoliyatini rivojlantirish vazifasigina emas balki mакtabgacha yoshdagi bola shaxsini tarbiyalash vazifasi ham hal etiladi.

Ish metodi. Etti yoshli bolalarning maishiy-xo'jalik mehnatida aktiv ishtirok etishlari bir vaqtida ikki yo'nalishda: ijtimoiy ahamiyatli mazmunga ega bo'lgan jamoa mehnat faoliyati va topshiriqlarni, navbatchilik majburiyatlarini, atrofdagilarga foydali bo'lgan faoliyat maqsadini realizatsiya qilish bilan aloqador ishlarni bajarish orqali amalga oshiriladi. Aytaylik, bu kichkintoylar ayvonchasini tartibga keltirish, ular maydonsidagi maydonni, yo'lkani supurish, stollar, skameykalar changini artish, qumxonadagi qumni chopib yumshatishdir. Bolalarga guruh xonasida va o'ynaydigan xonada tartib o'rnatishni, shkaflarning changini artishda va shu kabi ishlarda kattalarga yordam berishni taklif etish mumkin. Bolalarning oldiga bunday maqsadlarni qo'yishda ularning o'zлari qilmoqchi bo'lgan ishlarning foydasini tushunishlariga, ularning mehnat faoliyatlarini atrofdagilar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini anglay olishlariga zrishish eng muhimdir. Bunga turli yo'llar bilan erishish mumkin. Masalan, bolalardan yordam oladigan kishilarning quvonchini tasvirlab berish. Bunday emotsional oldindan keluvchi asos bolalarning faoliyatini aktivlashtiradi, ularda ishni hafsala bilan qilish, yaxshiroq natijaga erishish ishtiyoqini uyg'otadi.

Natijasi o'zgalar uchun muhim bo'lgan ishning zarurligini bolalar tomonidan tushunilishiga bolalarning konkret ijtimoiy foydali xatti-harakatlarini analiz qilish jarayonida erishiladi. Masalan, tarbiyachi bolalarning mehnat faoliyatlarini baholar ekan, ularning e'tiborini Nodirning qanchalik yaxshi ish qilganligiga qaratadi. Nodir kichkintoylarning guruh xonasini yig'ishtirishda qatnashibgina qolmay, balki tarbiyachining iltimosini ham bajardi - garchi bu ish uning asosiy majburiyati bo'lmasa-da o'yinchoqlar qo'yilgan shkafni tartibga keltirdi.

Bolalarning atrofdagilarga yordam berishga yo'llangan qandaydir maishiy xo'jalik ishlarini bajarishlarini tashkil etar ekan, tarbiyachi har qanday vaziyatdan, har qanday tafsilotdan foydalanishga, bolalarning birorta ham harakatlarini e'tiborsiz qoldirmaslikka

intiladi. Masalan, u bolalarga qarata bunday deydi: «Bugun Nodir kichik guruh enagasiga maydondagi stol va skameykalarning changini artishda yordam berdi. Menga uning kattalarga bildirgan e'tibori ayniqsa hush yoqdi, chunki bu vaqtda u qumdan nimadir yasayotgan edi. Rahmat senga Nodir, sen uruhmizning yuzini erga qaratmading».

Tarbiyachi bolalarni faoliyatning ijtimoiy-foydali maqsadini tushunishga turli yo'llar bilan olib keladi. Avval boshda, ya'ni bunday ishlarga qatnashish uchun bolalarda etarlicha ish tajribasi yo'q paytida, faoliyat maqsadini kattalarning o'zlarn aytib turadilar: o'yinchoqli shkafni tartibga keltir, enagaga yostiqlarni toza jildlarga tiqishda yordam ber. Keyinchalik bolalarga ular kichkintoylarga, guruh tarbiyachilariga, enagalarga qaysi ishda va qanday yordam bera olishlarini o'ylash taklif etiladi. Bu o'rinda bolalarning e'tiborini ishning o'zgalar uchun ahamiyatli tomoniga va uning qimmatiga jalb qilish muhimdir.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalari bilan ishlaganda ularni ish natijasi MTT xodimlari uchun ahamiyatli bo'lgan ishlarga jalb qilishni sinab ko'rish kerak. Aytaylik, xo'jalik mudiriga ba'zi bir mahsulotlarni tashishda yordam berish, qish uchun sabzavotlar, mevalarni toplashda qatnashish; oshpazga pishgan kar toshkani tozalashda, vinegret tayyorlashda yordam berish. Bolalar farrosh bilan birlgilikda xo'jalik hovlisidagi yo'lkani tozalashlari mumkin.

Boshqalarga yordam berish zarurligini bolalarning yaxshiroq anglashlari uchun ularda oldindan maishiy-xo'jalik mehnatining mazmuni haqida tasavvurni shakllantirish lozim. Bolalarning farrosh, oshpaz, xo'jalik mudiri mehnati bilan tanishishlari mashg'ulotlar jadvaliga kiritilgan maxsus ekskursiyalar orqali va kundalik hayotda amalga oshiriladi.

Bolalarda kattalarning maishiy-xo'jalik mehnati haqida tasavvur hosil qildirish maqsadlarida mavzuga mos asarlardan hamda kitoblarining rasmlari va illyustratsiyalaridan foydalanish mumkin. Tarbiyachi rahbarlikning bunday usullari vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolani maktabga chiqish davrida bola shaxsining axloqiy yo'nalganligini aniqlovchi, uning mehnat faoliyatini belgilovchi etarlicha barqaror motivlar shakllanadi.

## **XULOSA**

Ta'lim va tarbiya predmetlar o'qitilishida yagona pedagogik jarayondir.

Ta'lim - bolalarning bilim ko'nikma va malakalari, ularning bilish qobiliyatlarini o'stiradigan, dunyoqarashlarini tarkib toptiradigan jarayondir.

Tarbiya - yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama o'stirib, kamol toptirish, uning ongi va xulq-atvorini tarkib toptirish jarayonidir.

Mana shunday murakkab jarayon o'g'il va qizlarni maktabga, hayotga tayyorlaydigan ularda tabiat hamda jamiyat haqida dastlabki bilim va tasavvurlarini tarkib toptiradigan maktabgacha tarbiya muassasalari zimmasiga ham kichkintoylarning mehnat tarbiyasi bo'yicha yanada mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi mehnat tarbiyasining maqsadi maktabgacha yoshdagi o'g'il va qizlarda mehnatga to'g'ri ijodiy munosabatni, mehnatsevarlik va mehnat malakalarini hosil qilishdir.

Bu maqsadga ularning yosh imkoniyatini va mehnat faoliyatini xususiyatlarini hisobga olib ish ko'rish orqali erishish mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi mehnat tarbiyasining tarkibiy qismi va muhim omili qo'l mehnati bo'lib u bolalarni mehnatga o'rgatishda, ularni shaxsini ma'naviy jihatdan o'stirishda katta rol o'ynaydi. Bolalar maishiy mehnati jarayonida turli jarayonlarning xususiyatlariga doir elementar bilimlarni, ulardan foydalanish yo'llarini tajribada o'zlashtiradilar, eng muhimi ijodiy ishlarga odatlanadilar.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi. - T.: O‘zbekiston, 2010 y  
32-bet
2. “Maktabgacha yoshdagি bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari”.-T.: 2012 y
3. “Bolajon” tayanch dasturi .-T.: 2010 y.
4. “Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik ko‘llanma. T., 2001 yil.
5. Doniyev B. Mehnat ta’limi hayotiy zarurat. T.: 1999.
6. Mahkamov U. “Axloq-odob saboqlari”, Toshkent- 1994yil
7. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. T. 2012.
8. Xasanboyeva O. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi ”T., 2006yil
9. “Maktabgacha ta’lim” jurnali . 2012

## **M U N D A R I J A**

Muqaddima .....	3
Bola shaxsini shakllantirishda maishiy-xo'jalik mehnatining ahamiyati .....	4
Maishiy-xo'jalik mehnatining mazmuni va unga rahbarlik qilish metodlari.....	6
Maktabgacha ta'lif tashkilotida maishiy-xo'jalik mehnatining guruhlarda mazmuni.....	10
Xulosa .....	23
Foydalangan adabiyotlar .....	24

**Qarshiyeva Zulfiya Shukurovna**

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NING MAISHIY-  
XO'JALIK MEHNATI**

Texnik muharrir *Abdullayev F.*

Terishga berildi: 10.01.2021 y.

Bosishga ruxsat berildi: 13.01.2021 y

Ofset bosma qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84 1/16.

«Cambria» garniturasi. Ofset bosma usuli.

1.5 bosma taboq Adadi: 50nusxa. Buyurtma №65/20

---

Samarqand viloyati Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash  
va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.

Samarqand shahar, Obidinov ko'chasi 7-uy.